ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 348 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar..... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash..... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari..... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMDA QO'LLANISH IMKONIYATLARI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-8371-6298

Annotatsiya: Maqolada fikr tarbiyasining tarixiy-pedagogik mazmuni Suqrot usuli, Ya. A. Komenskiyning kuzatishga asoslangan didaktikasi, Abdulla Avloniyning ta'lim va tarbiya birligi haqidagi qarashlari hamda J. Deweyning refleksiv fikrlash konsepsiyasi asosida tahlil qilingan. Tarixiy merosni zamonaviy ta'limga tatbiq etish uchun savol qo'yish, dalilni tekshirish, muqobil talqinlarni taqqoslash va refleksiv baholashga asoslangan metodik ketma-ketlik taklif qilingan.

Kalit so'zlar: fikr tarbiyasi, pedagogik tafakkur, tarixiy-pedagogik meros, mustaqil fikrlash, refleksiv fikrlash, dialogik ta'lim, metakognitsiya, dalillash.

Abstract: This article examines the historical and pedagogical foundations of cultivating thinking through an analysis of the Socratic method, Jan Amos Comenius's observation-based didactics, Abdulla Avloni's views on the unity of teaching and upbringing, and John Dewey's concept of reflective thinking. To integrate historical pedagogical heritage into contemporary education, the article proposes a methodological sequence based on formulating questions, evaluating evidence, comparing alternative interpretations, and engaging in reflective assessment.

Key words: cultivation of thinking, pedagogical thought, historical pedagogical heritage, independent thinking, reflective thinking, dialogic teaching, metacognition, argumentation.

Аннотация: В статье анализируется историко-педагогическое содержание воспитания мышления на основе сократического метода, дидактики Я. А. Коменского, основанной на наблюдении, взглядов Абдуллы Авлони на единство обучения и воспитания, а также концепции рефлексивного мышления Дж. Дьюи. Для внедрения историко-педагогического наследия в современное образование предлагается методическая последовательность, основанная на постановке вопросов, проверке доказательств, сопоставлении альтернативных интерпретаций и рефлексивном оценивании.

Ключевые слова: воспитание мышления, педагогическая мысль, историко-педагогическое наследие, самостоятельное мышление, рефлексивное мышление, диалогическое обучение, метакогниция, аргументация.

KIRISH

Fikr tarbiyasini ta'lim oluvchining bilimlarni o'zlashtirishi bilan bir qatorda savol qo'yishi, dalillar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashi, xulosalarini asoslab berishi va o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishini ta'minlaydigan pedagogik jarayon sifatida talqin qilishimiz mumkin. Bunday talqin bilim, fikrlash amali va shaxsning intellektual mas'uliyatini o'zaro bog'laydi va bugungi axborot ko'pligi sharoitida fikrni tarbiyalashning ahamiyati o'quvchining xabar mazmunini tushunishi, uning manbasini tekshirishi hamda ishonchlilik darajasini baholashida namoyon bo'ladi.

Tarixiy pedagogik meros ushbu vazifaning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Biroq tarixiy tushunchalarni zamonaviy terminlar bilan to'liq tenglashtirish ilmiy jihatdan o'rinli emas. A. Avloniyning "fikr tarbiyasi", J. Deweyning refleksiv fikrlashi va J. Flavellning metakognitsiyasi turli nazariy hamda madaniy sharoitlarda shakllangan. Ularni qiyoslashdan maqsad aynan bir xil konsepsiya ekanini isbotlash emas, balki ta'lim amaliyoti uchun muhim umumiy tamoyillar va farqlarni aniqlashdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Platonning "Menon" dialogidagi geometrik suhbatda Suqrot bolaning dastlabki taxminini savollar yordamida tekshiradi. Bola kvadrat tomonini ikki baravar oshirish uning yuzini ham ikki baravar oshiradi, deb o'ylaydi; Suqrot esa savollar va chizma orqali bu taxminning xatoligini aniqlaydi [1, 82–84].

Bugungi kunda dialogni zamonaviy o‘quv tajribasining empirik dalili sifatida qabul qilib bo‘lmasa-da, unda dastlabki ishonch, ziddiyatni anglash va izlanishga ehtiyojning paydo bo‘lishi aks etgan. Fikr tarbiyasida o‘quvchining javobini eshitishning o‘zi yetarli emas: uning javobga qanday kelganini aniqlash zarur. O‘qituvchi “Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz?”, “Bu fikr qaysi shartlarda to‘g‘ri?”, “Qarshi misol topish mumkinmi?” kabi savollar yordamida mulohazaning tuzilishini ochadi va bu jarayonda xatoni tushuntirish ham o‘rganish natijasiga aylanadi.

Zamonaviy ta’limda dialogni qo‘llashda savollar o‘quvchini faqat oldindan belgilangan javobga yetaklab borish vositasiga aylanmasligi kerak. Buning uchun ta’lim oluvchining o‘zi savol berishi, boshqa yechimni taklif qilishi va dalil orqali e’tiroz bildirishiga imkoniyat yaratilishi zarur. Bilishdagi qiyinchilik o‘quvchining sha’nini kamsitadigan vaziyatga emas, xavfsiz izlanish muhitiga aylanganda dialog fikrni rivojlantirish vositasi sifatida ishlaydi.

Ya. A. Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarida fanlarni o‘qitish metodi alohida tahlil etilgan bo‘lib, olim bilimning boshlanishini narsalarning nomlarini o‘rganishdan ko‘ra, ularni bevosita idrok etish bilan bog‘laydi [2, 337-b.]. Uning “actual observation and sensuous perception” (bevosita kuzatish va hissiy idrok) iborasi ushbu didaktik yo‘nalishni aniq ifodalaydi [2, 337-b.]. Mazkur qarashdan foydalanishda ko‘rgazmalilikning fikrlashni tashkil etuvchi vazifasi muhimdir.

Ko‘rgazmali material o‘quvchining e’tiborini jalb qilishi bilan cheklanmasdan, belgilarning farqini aniqlash, obyektlarni taqqoslash va xulosa chiqarishga xizmat qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, kuzatish topshirig‘i “Nimani ko‘rdingiz?”, “Qaysi belgi asosida guruhlashtirdingiz?”, “Bu xulosani yana qanday tekshirish mumkin?” savollari bilan birga tashkil etiladi. Masalan, tabiiy fanlar darsida o‘quvchilar ikki xil sharoitda o‘stirilgan o‘simliklarni taqqoslaydi. Ular kuzatilgan farqni qayd etadi, ehtimoliy sababni taklif qiladi va sabab haqidagi taxminni tekshirish uchun qanday qo‘shimcha ma’lumot zarurligini belgilaydi. Ushbu faoliyat kuzatish, taxmin va isbotning o‘zaro farqini tushunishga yo‘naltiriladi. Ya. A. Komenskiy qarashlarini bugungi ta’limga tatbiq etish hissiy idrokni bilimning yagona mezoni deb qabul qilishni anglatmaydi: nazariy model, o‘lchash vositalari va manbalar tahlili ham hisobga olinadi.

A. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining “Fikr tarbiyasi” bo‘limida shunday yozadi: “fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur” [3]. Ushbu iqtibos fikr tarbiyasini o‘qituvchining kasbiy mas’uliyati bilan bog‘lashga asos bo‘ladi. Avloniy qarashlarining o‘ziga xosligi fikr tarbiyasini ta’lim, axloq va amaliy faoliyat bilan birgalikda ko‘rishida bo‘lib, asarda muallimning o‘z bilimiga amal qilishi va darsni amaliyot bilan bog‘lab o‘rgatishi ta’kidlanadi [3]. Bundan kelib chiqadigan pedagogik xulosa shuki, o‘qituvchi fikrlash madaniyatini faqat talab qilish orqali emas, o‘z mulohazasini asoslab berishi, manbaga murojaat qilishi va xulosasini tekshirishi orqali ham namoyon etadi.

Mazkur qarashni zamonaviy ta’limga moslashtirishda dalillash va axloqiy mas’uliyatning birligi muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi muhokamada manbani to‘g‘ri ko‘rsatishi, boshqalarning fikrini buzib talqin qilmasligi va yetarli dalil bo‘lmaganda xulosasining cheklanganligini tan olishi zarur. Pedagogika darsida “O‘qituvchining o‘zi amal qilmagan talabni o‘quvchidan talab qilishi qanday oqibatlarga olib keladi?” savoli asosida keys tahlili tashkil etilishi mumkin. Talabalar vaziyatni pedagogik munosabat, ishonch va shaxsiy namuna nuqtai nazaridan baholaydi. Bu usul fikrning mantiqiy asoslanganligi va uning axloqiy oqibatlarini birgalikda muhokama qilish imkonini beradi.

J. Dewey “How We Think” asarida refleksiv fikrlashni “Active, persistent, and careful consideration” (faol, izchil va sinchkov ko‘rib chiqish) deb talqin qiladi [4, 6-b.] va fikr yoki bilimni uni qo‘llab-quvvatlaydigan asoslar va undan kelib chiqadigan xulosalar bilan bog‘lab tekshirishni nazarda tutadi. J. Dewey uchun fikrlashda qiyinchilik yoki shubha va uni hal etishga qaratilgan izlanish muhimdir. Olimning fikricha, taxminni darhol qabul qilish o‘rniga, uni tasdiqlaydigan yoki rad etadigan qo‘shimcha dalillar izlanishi lozim [4, 9–13-b.].

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, ta’limdagi refleksiyani “Dars menga yoqdimi?” savoli bilan cheklash mumkin emas. Refleksiya o‘quvchining qanday xulosa chiqargani, qaysi dalildan foydalangani va fikrini qaysi asosga ko‘ra o‘zgartirganini aniqlashi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amaliy topshiriqda o‘quvchilarga bitta masala bo‘yicha ikki xil talqin berish va har bir talqinning dalillarini ajratish, dalilning xulosaga aloqadorligini tekshirish va yakuniy qarorini yozma ravishda asoslash lozim. O‘qituvchi javobning to‘g‘riligini baholash bilan birga, dalildan xulosaga o‘tish mantiqini ham tahlil qiladi, bunday moslashtirish fan mazmuniga tayangan holda amalga oshirilishi kerak: predmet haqidagi bilim yetishmasa, umumiy holda o‘quvchiga qo‘yiladigan “fikrlang” talabi mazmunli izlanishni ta’minlamaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

J. H. Flavell metakognitiv bilimni insonning o'zi va boshqalarni bilish faoliyati subyekti sifatida tushunishi, vazifalar hamda strategiyalar haqidagi bilimlar bilan bog'laydi [5]. Bu tushuncha fikr tarbiyasini o'quvchining o'z fikrlash jarayonini kuzatishi va boshqarishi bilan boyitadi hamda fikr tarbiyasi va metakognitsiya aynan bir tushuncha emasligini, fikr tarbiyasini keng pedagogik jarayon, metakognitsiyani esa bilish haqidagi bilim va uni nazorat qilishning nazariy yo'nalishi sifatida tavsiflaydi.

Education Endowment Foundation tavsiyalarida o'quvchilarga o'rganishni rejalashtirish, kuzatish va baholash strategiyalarini bevosita o'rgatish, ularni o'qituvchi tomonidan namoyish etish hamda bosqichma-bosqich yordam bilan qo'llash zarurligi ko'rsatiladi [6]. Unga ko'ra, o'quvchiga topshiriq berish oldidan maqsad va strategiya belgilanishi, topshiriqni bajarish jarayonida tushunishdagi qiyinchiliklar tekshirilishi, yakunda tanlangan strategiyaning foydasi baholanishi talab etiladi.

Dialogik ta'limga oid T. Jay, B. Willis, P. Thomas, R. Taylor, N. Moore, C. Burnett, G. Merchant, A. Stevenslarning tadqiqotida o'qituvchi va o'quvchi nutqining sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan dastur 38 tajriba hamda 38 nazorat maktabida o'rganilgan [7].

Ushbu tadqiqot jarayonidagi dialogik yondashuv o'quvchilarning mulohaza yuritishi, muhokama qilishi, dalillashi va tushuntirishiga e'tibor qaratgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida fikr tarbiyasini tashkil etish uchun bir qator metodik yo'nalishlar taklif qilinadi.

Tahlil etilgan tadqiqotlarga tayanib, aytish mumkinki, Suqrot usulida dastlabki qarashni savollar orqali tekshirish; asoslovchi savollar va qarshi misollar yordamida amaliy fikrlashni tashkil etish o'quvchining o'z fikrini izohlashiga e'tibor qaratishni o'rgatadi.

Ya. Komenskiy didaktikasida kuzatish orqali tushunchaning asosini yaratish; amaliy shakl sifatida obyektlarni taqqoslash va ma'lumotni qayd etish; kuzatiladigan natija sifatida kuzatish bilan taxminni farqlashga e'tibor qaratiladi.

A. Avloniy qarashlarida esa ta'lim, amaliyot va axloqiy mas'uliyatning birligi; amaliy shakl sifatida pedagogik yoki axloqiy keys; kuzatiladigan natija esa qarorning oqibatini hisobga olish bilan belgilanadi.

J. Dewey konsepsiyasida taxmin va xulosalarni dalil orqali tekshirish; muammoli vaziyat va muqobil talqinlarni amalda sinab ko'rish va xulosaning asoslanganligi muhim hisoblanadi. Shu asosda metakognitiv yondashuv o'quvchiga o'z bilish faoliyatini boshqarish, amaliy reja tuzish, jarayonni tekshirish va refleksiv qaydlar, strategiyani ongli tanlash va baholash imkonini beradi.

Mazkur yo'nalishlarni darsda birlashtirish uchun besh bosqichli ketma-ketlik tavsiya etiladi:

- *Birinchi bosqichda* fan mazmuniga mos muammoli savol beriladi va dastlabki fikr yozib olinadi;
- *ikkinchi bosqichda* kuzatish materiali, matn yoki boshqa manbaning mazmuni va ishonchliligi tekshiriladi;
- *uchinchi bosqichda* kamida ikki talqin qiyoslanib, ularning dalillari muhokama qilinadi;
- *to'rtinchi bosqichda* o'quvchi o'z xulosasini va uning amal qilish shartlarini ifodalaydi;
- *beshinchi bosqichda* "Fikrim nimaga ko'ra o'zgardi?", "Qaysi dalil yetishmayapti?", "Keyingi safar qanday strategiyadan foydalanaman?" savollari orqali refleksiya amalga oshiriladi.

Masalan, pedagogika fanidan amaliy mashg'ulotda "O'quvchining darsda ko'p gapirishi uning chuqur fikrlayotganini bildiradimi?" savoli beriladi. Talabalar dastlabki javobini yozadi, ikki dars vaziyatini tahlil qiladi: birida qisqa javoblar ko'p, ikkinchisida javoblar kamroq, lekin dalil va izoh mavjud. Muhokamada nutqiy faollik, dalillash va tushunish o'rtasidagi farq aniqlanadi. Yakuniy yozma topshiriqda talaba qaysi belgilar asosida fikrlash sifatini baholash mumkinligini asoslaydi. Ushbu misol taklif etilgan ketma-ketlikning o'quv vazifasiga moslashtirilgan ko'rinishidir.

Fikr tarbiyasini baholash uchun muammoni aniqlash, dalil tanlash, mantiqiy bog'lanishni tushuntirish, muqobil qarashni hisobga olish va refleksiya mezonlari taklif qilinadi. Har bir mezon bo'yicha o'quvchining yozma yoki og'zaki ishidan aniq dalil olinishi kerak. Masalan, refleksiya o'quvchining "fikrim o'zgardi" degan bayonoti bilan emas, qaysi dalil bunga sabab bo'lganini tushuntirishi bilan aniqlanadi. Bu mezonlar validatsiyadan o'tgan diagnostik vosita sifatida taqdim etilmaydi.

Amaliy tatbiqda o'quvchining yoshi, fan bo'yicha tayyorgarligi va ta'lim tili hisobga olinadi. Dastlab o'qituvchi fikrlashni ovoz chiqarib namoyish qiladi, keyin yo'naltiruvchi savollar bilan yordam beradi, so'ng mustaqil topshiriqqa o'tiladi. Og'zaki javob berishda qiynaladigan o'quvchiga yozma izoh yoki juftlikdagi muhokama imkoniyati yaratiladi. Darsdagi javoblar soni fikrlash sifati bilan tenglashtirilmaydi. Taklif etilgan metodik ketma-ketlikni dastlabki va yakuniy topshiriqlar orqali tekshirish mumkin. Bunda fan mazmuni, topshiriq murakkabligi, o'qituvchi tayyorgarligi va baholovchilar o'rtasidagi kelishuv nazorat qilinishi zarur. Shu shartlar tarixiy g'oyaning zamonaviy pedagogik samarasini dalil bilan baholash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikr tarbiyasiga oid tanlangan tarixiy yondashuvlar savol qo‘yish, kuzatish, dalillash, amaliy mas’uliyat va refleksiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Suqrot usuli dastlabki qarashni tekshirishni, Ya. Komenskiy kuzatish asosida tushunishni, A. Avloniy o‘qituvchining kasbiy va axloqiy mas’uliyatini, J. Dewey esa xulosalarni izchil tekshirishni anglash uchun nazariy asos beradi. Metakognitiv va dialogik ta’lim tadqiqotlari ushbu muammolarni zamonaviy ilmiy tushunchalar va tekshiriladigan amaliy jarayonlar bilan bog‘lashga yordam beradi.

Tarixiy merosdan foydalanishning samarali yo‘li iqtiboslarni darsga kiritish bilangina belgilanmaydi. Ular asosida o‘quvchi fikrini izohlash, dalilni tekshirish, muqobil qarashni baholash va o‘z mulohazasini qayta ko‘rib chiqishga xizmat qiladigan o‘quv faoliyati loyihalanishi lozim. Taklif etilgan metodik ketma-ketlik va baholash mezonlari ana shu vazifani tashkil etishga yo‘naltirilganligi bilan muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Plato. Meno / translated by W. R. M. Lamb // Plato in Twelve Volumes. Vol. 3. Cambridge, MA: Harvard University Press; London: William Heinemann, 1967. 82b–84d. https://atlas.perseus.tufts.edu/library/passage/urn:cts:greekLit:tlg0059.tlg024.perseus-eng2:80-84 (murojaat sanasi: 06.10.2026).
2. Comenius J. A. The Great Didactic of John Amos Comenius / translated and edited by M. W. Keatinge. London: Adam and Charles Black, 1896. P. 337. https://en.wikisource.org/wiki/The_Great_Didactic_of_John_Amos_Comenius (murojaat sanasi: 06.10.2026).
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. “Fikr tarbiyasi” bo‘limi. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq/?lng=lat (murojaat sanasi: 06.10.2026).
4. Dewey J. How We Think. Boston: D. C. Heath & Co., 1910. P. 6, 9–13. https://www.gutenberg.org/cache/epub/37423/pg37423-images.html (murojaat sanasi: 06.10.2026).
5. Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry // American Psychologist. 1979. Vol. 34, No. 10. P. 906–911. DOI: https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906.
6. Education Endowment Foundation. Metacognition and Self-Regulated Learning: Guidance Report. https://educationendowmentfoundation.org.uk/education-evidence/guidance-reports/metacognition (murojaat sanasi: 06.10.2026).
7. Jay T., Willis B., Thomas P., Taylor R., Moore N., Burnett C., Merchant G., Stevens A. Dialogic Teaching: Evaluation Report and Executive Summary. London: Education Endowment Foundation, 2017. https://shura.shu.ac.uk/17014/ (murojaat sanasi: 06.10.2026).

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.